

O‘ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUUF FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI

Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o‘g‘li,
nuritdinovabrorbek@gmail.com
O‘zMU Jurnalistika fakulteti Kompyuter lingvistikasi
mutaxassisligi II kurs magistranti

Annotatsiya: O‘zbek tili korpusi kerakli manbalarni baza sifatida olinishida har bir matnning mavzu doirasini ham hisobga olishi zarur. Maqolada ham shu masala, **Abdurauf Fitratning** lingvistik asarlarini O‘zbek tili korpusi uchun manba sifatida olinishi haqida ma’lumotlar berib o‘tildi. O‘zbek tili korpusi keng ko‘lamda barcha o‘zbek tilining badiiy asarlari hamda variantlari, lingvistik va metamatnli ma’lumotlarini qamrab olish bilan birga ma’lum lingvistik birlikni diaxron hamda sinxron ravishda taqqoslab bera olishi kerakligi nazarda tutildi.

Kalit so‘zlar: *baza, ma’lumotlar bazasi, O‘zbek tili korpusi, lingvistik teg, grammatika, termin, konkordanser.*

Annotation: The Uzbek language corps should include the subject area of each text in order to obtain the necessary resources as a basis. The article also discusses the use of Abdurauf Fitrat's linguistic works as a source for the Uzbek language corps. It was envisaged that the Uzbek language corpus should be able to provide a wide range of works of art and variants of the Uzbek language, as well as linguistic and meta-textual information, taking into account the diachronic content of a particular linguistic unit.

Keywords: *database, database, Uzbek language corpus, linguistic tag, grammar, terminology, concordant.*

Hozirgi kunda O‘zbek tili korpusining (<https://uzbekcorpus.uz>) yaratilishi yurtimizda, xususan, o‘zbek tilshunosligida, kompyuter lingvistikasida o‘zbek tilining ham axborot-kommunikatsiya tizimidagi o‘rni o‘sayotganini bildiradi.

O'zbek tili korpusi ma'lumotlar bazasini boyitishda korpus lingvistikasida oldindan aniq bo'lgan korpus yaratish tamoyillariga asoslanilmoqda.

Bilamizki, korpus tuzilishi, maqsadi, turg'un, o'zgaruvchanligi kabi jihatlariga ko'ra, bir qancha turga ega bo'lib, mutaxassislar tomonidan turlicha tasniflangan. Korpusning tur, xillari qancha ko'p bo'lmasin, ularni dastlab ikki tomondan guruhlash maqsadga muvofiq:

- butun til(odatda, tilning ma'lum davri)ga yoki uning ma'lum bir voqelanish turi(janr, uslub, biror ijtimoiy yoki yoshga oid guruh; yozuvchi yoki olim tili)ga oidligiga ko'ra;
- lingvistik teg turiga ko'ra[1].

Shunga asosan, matnni teglashda matnni barcha soha miqyosida o'rganilishi bilan birgalikda, qaysi soha vakillari chuqurroq o'rganishini ham hisobga olish zarur. O'zbek tili korpusi uchun Abdurauf Fitratning lingvistik asarlarini manba sifatida olishda ham shu masalalarni inobatga olish kerak. Avvalo, Abdurauf Fitratning o'zbek tilshunosligidagi o'rniga to'xtalib o'tsak, Abdurauf Fitrat o'zbek tilshunosligi tarixida eng katta xizmatlaridan biri uning o'zbek tili milliy grammatikasiga asos solganligidir. O'tgan asrning 20-yillarida o'zbek tiliga doir asarlar juda ozchilikni tashkil qilar edi. O'sha vaqtda maktablarda ona tili sifatida usmonli turk tili o'rgatila boshlagan va tilimiz grammatikasi ham o'sha til grammatikasi ta'sirida qolgan edi. Ana shunday sharoitda A. Fitrat tilimizning o'z tabiatidan, o'ziga xos qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda milliy grammatika yaratdi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligi fani o'tgan asrning 20-yillarida vujudga kelgan bo'lib, unga A. Fitrat va uning zamondoshlari Elbek, Munavvarqori, Qayum Ramazon, G'ozil Olim, Sh. Zunnunlar tamal toshini qo'ygan edilar. Ular tomonidan yozib qoldirilgan noyob asarlar hozirgi tilshunosligimizning sarchashmalaridir[2]. Shularni hisobga olsak, Abdurauf Fitratning lingvistik asarlari O'zbek tili korpusi uchun barcha sohalar bilan birga, ayniqsa, o'zbek tilshunosligi uchun eng kerakli

manba ekanini ko'rsatadi. Uning lingvistik asarlari bilan tanishgan izlanuvchi tilshunoslikka oid tushunchalar (aniqrog'i, terminlar) hozirgi tilshunoslikka yaqinligini ko'radi.

Shu nuqtayi nazardan Abdurauf Fitratning «Tanlangan asarlari» IV jildidagi «Tilimiz – I», «Tilimiz – II», «Tilimizning adabiyliigi», «Muqaddimat ul-adab», «O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf», «O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba. Ikkinchi kitob: Nahv» maqolalaridagi tilshunoslik terminlari sitatistikasiga to'xtalsak, ularda hozirgi tilshunoslik terminlariga o'xshash va farqli ravishda 270 ga yaqin terminni ko'rishimiz mumkin.

Kitobning «O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf» qismiga kirgan «So'zlarning tubligi, yasamaligi» («Tanlangan asarlar» IV jild 146-bet) matniga tilshunoslik terminlarining qo'llanilishi nuqtayi nazaridan yondashsak, ularning matndagi faollik darajasi va qanday qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili korpusi bazasiga joylangan matndagi terminlarni korpus konkordanseri so'zshakl holatida topib beradi. Lekin buning bir muammoli tomoni bor: terminlar faqat so'z shaklida bo'lmasligi mumkin (birikma shaklida bo'lishi mumkin). Shuning uchun teggish jarayonida bunga e'tibor berish zarur. Bu jarayon amlga oshirilgandan so'ng ushbu matndan tilshunoslik terminlarining quyidacha qo'llanilish statistikasi kelib chiqadi: *ot* (2 marta), *sifat* (*sufat* shaklida 2 marta), *fe'l* (1 marta), *ko'makchi* (1 marta), *o'zak* (8 marta), *tub* (2 marta), *yasama* (3 marta), *tub so'z* (4 marta), *yasama so'z* (4 marta), *so'z yasash* (4 marta), *qo'shimcha* (3 marta), *sheva* (1 marta), *bir ma'no* (1 marta), *buyruq* (2 marta), *tillarning boyimqlari* (1 marta), *tillarning kengaymaklari* (1 marta).

Bundan ko'rinib turibdiki, jadid tilshunosi bo'lgan Abdurauf Fitrat tilshunoslik terminlarini taraqqiyotida o'zining munosib o'rniga ega ekanligini yana bir bor ta'kidlash mumkin. Birgina 198 so'zdan iborat matnida tilshunoslikka oid 16ta terminni takrori bilan 40 marta ishlatgan. Bu terminlarni iloji boricha o'zbekcha

soʻzlar bilan qoʻllagan. Ularning hozirgi kunda ham qoʻllanilishi Abdurauf Fitratning terminologiya sohasida sezilarli oʻringa egaligini koʻrsatadi.

Tahrirlashning keying jarayonida yana bir masalani yodda tutish zarur. Hozirgi kun tadqiqotchisi Oʻzbek tili korpusidan tilshunoslik terminlarini bugungi nom bilan qidirishi bizning maʼlumot bazamizning chetda qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Teglash jarayonida buni ham hisobga olib, terminlarni hozirgi nomi bilan mos ravishda sinonimlar bazasiga kiritiladi.

№	Terminlar	Hozirgi varianti	№	Terminlar	Hozirgi variant
1.	туриш белгилари	tinish belgilari	8.	кўш нукта	ikki nuqta
2.	туришлар	tinish belgilari	9.	тирноқлар	qoʻshtirnoq
3.	нукта	nuqta	10.	ёйлар	Qavs
4.	бир тиниш белгиси	nuqtali vergul	11.	тўрткул ёйлар	toʻrtburchak qavs, kvadrat qavs
5.	ярим тиниш белгиси	vergul	12.	улкан ёйлар	katta qavs, jingalak qavs
6.	сўраш белгиси	soʻroq	13.	чизиқ	Tire
7.	ундаш белгиси	undov	14.	нукталар	koʻp nuqta

Yana shuni yodda tutish kerakki, korpusga baza sifatida kiritilayotgan matn asl variantidagi yozuvda (kirill, lotin) boʻlsa, shunday saqlash kerak. Maqsadimiz matnni saqlab qolish va keng qoʻllanilishiga erishishdir. Endilikda izlanuvchi korpusdan termini hozirgi nomi bilan qidirganda mos ravishda jadid tilshunoslari davrida ham qoʻllanilgan variantini, uning qaysi matn ichida ekanligini koʻrsatadi.

Xulosa esa, korpusga baza tayyorlash va uni kiritishda qoʻshimcha ravishda yana nimalarga eʼtibor berish kerakligi, Oʻzbek tili korpusiga Abdurauf Fitratning lingvistik asarlari, balki keyingi jarayonlarda barcha asarlarini baza sifatida kiritish



orqali O'zbek tili korpusi ma'lumotlar bazasini kengayishiga hamda bu asarlarni yanada keng qo'llanilishi erishish muhim vazifa ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamroyeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Monografiya. – Toshkent, 2020. – B. 60.
2. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o'zbek tilshunosligi (Metodik qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 1997. – B. 9.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B. 124-213.
4. Abduraxmonova N.Z. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (monografiya). – Globeedit, 2021.
5. Abduraxmonova N.Z. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti (monografiya) – Toshkent: Muharrir, 2018.
6. Boltaboyev H. noma'lum Fitrat. Yoshlik, 1990, 4-son. – B. 34-39.
7. Hamroyeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari (monografiya). – Toshkent, 2020. – B. 60
8. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o'zbek tilshunosligi (Metodik qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 1997. – B. 9.